




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

BADIIY MATNDA NUROTA SHEVASIGA XOS MORFOLOGIK SHAKLLARNING QO'LLANISHI VA USLUBIY VAZIFASI

THE USE AND STYLISTIC FUNCTION OF MORPHOLOGICAL FORMS OF THE NURATA DIALECT IN LITERARY TEXTS

Feruza AMINOVA,

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/UPRM5451

Annotation. *This article analyzes the use of morphological forms characteristic of the Nurata dialect in literary texts and their stylistic functions. Based on prose materials, the study identifies dialectal variants of case affixes, participial and adverbial forms, as well as auxiliary elements, and examines their functional-semantic features. In particular, the use of affixes that deviate from the standard literary norm is shown to contribute to the creation of regional coloring, the individualization of characters' speech, and the enhancement of the text's expressiveness. Furthermore, the role of dialectal morphological units in literary texts and their stylistic load are interpreted from a linguopoetic perspective.*

Key words: *Nurata dialect, dialectal style, morphological forms, morphological dialectism, literary text, participle, adverbial form, case affixes, linguopoetics, regional coloring, colloquial speech.*

Badiiy matn tilini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda til birliklarining nafaqat grammatik, balki uslubiy va estetik imkoniyatlari ham tadqiq etiladi. Ayniqsa, badiiy asarlarda shevaga xos birliklarning qo'llanishi nutqning tabiiyligini ta'minlash, qahramon xarakterini ochish hamda tasvirlanayotgan muhitni real aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaraganda, dialektal morfologik shakllarning badiiy matndagi funksional xususiyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbek tilining hududiy ko'rinishlari orasida Nurota shevasi o'ziga xos fonetik va morfologik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu shevada kuzatiladigan affiksalar variantlar, xususan, sifat-dosh, ravish-dosh, kelishik qo'shimchalari hamda yordamchi so'zlarning o'ziga xos shakllari badiiy matnda alohida uslubiy yuklama kasb etadi. Bunday birliklar orqali yozuvchi qahramon nutqini individuallashtiradi, voqea sodir bo'layotgan hududning til muhitini jonli ifodalaydi hamda matnga milliy va hududiy kolorit baxsh etadi. Yuqorida qayd etilgan nazariy mulohazalar va umumiy yondashuvlar asosida, badiiy matnda Nurota shevasiga xos morfologik shakllarning real qo'llanishini tahlil qilish muhim ilmiy natijalarga olib keladi. Shu maqsadda nasriy matn materiallari asosida kelishik qo'shimchalari, sifat-dosh va ravish-dosh shakllari, shuningdek, yordamchi so'zlarning dialektal variantlari konkret misollar orqali ko'rib chiqiladi hamda ularning nutqdagi uslubiy va lingvopoetik funksiyalari izchil tahlil etiladi. *"Eslayversak, bunday voqealar mo'l, shunisi ham tushunarmanga kifoya, keling."* Ushbu gapda qo'llangan *tushunarmanga* shakli adabiy tildagi *tushunadigan (odam)ga* konstruksiyasiga mos keladi. Biroq bu yerda sifat-doshning an'anaviy -adigan modeli emas, balki -ar bilan -man kombinatsiyasi qo'llangan. Adabiy tilda: *tushunadigan odamga kifoya*, matnda: *tushunarmanga kifoya*. Demak, sifat-dosh orqali ifodalanadigan belgi (tushunadiganlik) bu yerda finit (shaxsli) fe'l shakli orqali berilmoqda. Bunday hodisani grammatik kategoriyaning funksional almashinuvi (transpozitsiya) sifatida baholash mumkin. Bu birlik o'tlashib, kelishik qo'shimchasini qabul qilgan holda gapning sintaktik a'zosi sifatida ishtirok etadi. Ushbu hodisa sifat-dosh kategoriya-sining funksional jihatdan

qayta tashkil etilganini ko‘rsatib, badiiy matnda nutqning ixchamligi, og‘zaki xarakteri va dialektal uslubini kuchaytiruvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi:

T/R	Misol	Izoh
1	Ketarman bo‘lib, tashqari chiqdik.	Ketaman deb (niyat qilib), ketadigan bo‘lib mazmunini ixcham shaklda ifodalaydi. Badiiy matnda esa mazkur birlik nutqni og‘zaki xarakterga yaqinlashtirib, qahramonning ichki niyati va harakatga tayyorgarlik holatini ifodalovchi dialektal-uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Professor S. Ashirboyev -gič, -rič, -kič, -qič affikslarini Surxondaryo qipchoq shevalarida keng qo‘llanishini qayd etadilar [Ashirboyev 2022:55]. Shuningdek, qipchoq lahjasi Nurota shevasida ham shunga o‘xshash fonetik-morfologik mexanizm -gič shakli orqali namoyon bo‘ladi: asarda – *ar* sifatoshi o‘rnida -gič affiksi qo‘llanganining qayd etish mumkin: “*Bövri butun bölsä, bu čol-u kămpir mînga kirgič edi*”. Affiksning hududiy shakli qahramon nutqini dialektal rang-baranglik bilan boyitadi, shu orqali voqea joyi va ijtimoiy muhitni sezdiradi. Matn kontekstida bu birlik nafaqat morfologik farqni, balki og‘zaki nutqning tabiiy va jonli xarakterini yaratadi. Shu bilan birga, qahramonning til stereotipi va hududiy identifikatsiyasi bilvosita ochiladi, badiiy tasvirning realizmi oshadi. - *gich* affiksi faqat individual muallif xatosi emas, balki Nurota shevasining sistematik morfologik xususiyati sifatida yuzaga keladi. Bu hududiy indikator badiiy matnda dialektal uslubni shakllantiruvchi vosita sifatida ishlaydi, ya’ni nafaqat talaffuz, balki sheva morfologiyasini ham jonli tarzda aks ettiradi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, sifatdosh yasashning mazkur modeli faqat bir hudud doirasida cheklanmay, balki qipchoq lahjasining turli areallarida uchraydigan umumiy morfologik tendensiyaning aks ettiradi. Shu bilan birga, Nurota shevasida qo‘llangan -*gich* shakli fonetik jihatdan Surxondaryo shevalarida qayd etilgan variantlardan ayrim farqlarga ega bo‘lib, bu farqlar har bir hududning o‘ziga xos fonotaktik xususiyatlari bilan belgilanadi. Demak, mazkur affikslar bir tomondan areal umumlashuvni bildiruvchi morfologik indikator, ikkinchi tomondan esa lokal fonetik realizatsiya orqali shevalarning individual qiyofasini ko‘rsatuvchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada bunday morfologik parallelizm dialektlararo genetik yaqinlikni tasdiqlasa, ularning fonetik tafovutlari hududiy differensiasiyani ochib beradi.

Samixon Ashirboyev o‘z tadqiqotlarida hozirgi zamon davomiylik ma’nosini ifodalovchi affikslarning shevalarda bir xil emasligini, xususan -*jatir*, -*žatir* kabi shakllar mavjudligini qayd etadi [Ashirboyev 2022:65]. Bu affikslar fonologik jihatdan qiziqarli xususiyatga ega: ular boshqa ko‘plab qo‘shimchalardan farqli ravishda singarmonizmga to‘liq moslashmaydi. Ya’ni affiks tarkibi asosdagi unli tovushga qarab o‘zgarib ketmaydi, aksincha nisbatan barqaror holda saqlanadi. Bu hol ularning tarixan shakllangan, ichki tuzilishi mustahkam birlik ekanini ko‘rsatadi.

S. Mustafo nasriy matnida aynan shunday shakllarni ongli ravishda tanlaydi: “*Uch joydan uloq tashlanayotir — na yetib bo‘ladi, na poychasidan tutib bo‘ladi*”. “*Qaynab toshib borayotirman, qani endi to‘daga kirolsam*”. Keltirilgan misollarda *tašlanajatir*, *bārajatirman* kabi shakllar adabiy tildagi *tashlanayapti*, *borayapman* variantlariga mos

keladi. Biroq ular oddiy almashtirish emas — bu yerda harakatning davomiyligi boshqacha ohangni, biroz cho'zilgan tarzda, uzoqroq davom etgan vaziatni ifodalaydi. -yotir komponenti fe'lga jarayonlilikni aniqroq yuklaydi, go'yo harakat ko'z oldimizda davom etayotgandek tasavvur uyg'otadi. Ayniqsa, *ulāq tašlanajatir* birikmasida harakatning uzluksizligi va keskinligi, *bārajatirman* shaklida esa ichki kechinma va intilish kuchliroq seziladi. Demak, bu shakllar faqat grammatik vazifa bajarmaydi, balki matnning emotsional va tasviriy qatlamini ham boyitadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yozuvchi tomonidan bunday affikslarning qo'llanishi ikki muhim natijani beradi: bir tomondan, nutqni muayyan hududiy grammatik modelga bog'laydi, ikkinchi tomondan esa bayonni jonlantirib, harakatni statik emas, balki jarayon sifatida his qildirishga xizmat qiladi. Natijada matnda nafaqat dialektal kolorit, balki kuchli dinamik tasvir effekti yuzaga keladi. Bu kabi hozirgi zamon shakllari adabiy til me'yoridan farqli holda fonologik barqarorlikni saqlagan dialektal affikslar bo'lib, badiiy matnda harakatning davomiyligini kuchliroq ifodalash, nutqni jonlantirish va dialektal uslubni shakllantirishda muhim lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi.

T/R	Misol	Stilistik maqsad
1	<i>Uččovimiz ham šamālday ketajatirmiz, fikr ulāqda.</i>	Harakatning tezligi va uzluksizligini jonli tasvirlab, nutqni og'zaki xarakterga yaqinlashtirib, qahramon nutqining hududiy xususiyatini ko'rsatish bilan birga, umumiy tasvirning dinamikligini oshiruvchi dialektal-uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.
2	<i>Gajik tik baratir. Odāmlār bilān āraliq nāri bārsa ön-ön beš qadamča.</i>	Yo'nalish va holatni, davomiy harakatni bildiradi.

“Ko'ngil sadolari” da kelishik qo'shimchalarining ham morfologik-dialektal shakllari yaqqol ko'zga tashlanadi: “*Xudo xohlasa, eldi oldi bo'lasan, deb yana duo qildi.*” Ushbu gapda *eldi* shakli adabiy tildagi *elni* (tushum kelishigi) formasining dialektal varianti bo'lib, unda tushum kelishigi affiksi -ni o'rniga -di qo'llangan. Ushbu hodisa qipchoq va singarmonizmli shevalarga xos bo'lgan fonetik-morfologik moslashuv natijasida yuzaga keladi. Bunda grammatik ma'no saqlangan holda, uning ifoda vositasi o'zgaradi. Badiiy matnda ushbu shakl orqali nutqning qaysi shevaga mansubligi seziladi, nutqni jonli va tabiiy qiladi. Bu birlik orqali nutq egasining til muhiti va ijtimoiy qatlamga mansubligi ochiladi. Mazkur shakl xalqona duolar, tilaklar kontekstida qo'llanib, milliy nutq muhitini aks ettiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy matnda Nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo'llanishi muhim lingvopoetik va uslubiy vazifalarni bajaradi. Nasriy asar materiallari asosida aniqlangan kelishik qo'shimchalari, sifat-dosh va ravishdosh shakllari

hamda yordamchi soʻzlarning dialektal variantlari adabiy til meʼyoridan ongli ravishda chetlashtirilgan holda qoʻllanib, nutqning hududiy koloritini kuchaytiradi. Shuningdek, bu birliklar qahramon nutqini individuallashtirish, uning ijtimoiy va hududiy mansubligini ifodalash hamda matnning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Ayniqsa, morfologik dialektizmlar ogʻzaki nutqning tabiiyligini taʼminlab, badiiy tasvirning realizmini oshiradi. Umuman olganda, Nurota shevasiga xos morfologik shakllar badiiy matnda nafaqat grammatik variant sifatida, balki muhim stilistik vosita sifatida ham faol ishtirok etadi. Bu esa oʻzbek badiiy nasrida dialektal birliklarning lingvopoetik ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019.
3. Shoabdurahmonov Sh. Oʻzbek dialektologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2007.
4. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2015.
5. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Mustafo S. Koʻngil sadolari. – Toshkent: Muharrir, 2024.

